

## XOTINLAR TO'G'RISIDA

Ozoda Abdusamatova Xolmamat qizi

Oriental Universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy, Kaykovus, Jaloliddin Rumi kabi allomalarning xotin va ayol haqidagi fikrlari o'rganiladi, tahlil va xulosa qilinadi.

Xalq maqollari va hadislardan namunalar keltirish orqali mavzuning ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Xotin, ayol, Rumi, Tog'ay Murod, Mahbub - ul qulub, Kaykovus, hadis, maqol, hikoyat, mulohaza, badf'el xotun.

Alisher Navoiyning 1500- yilda yozilgan "Mahbub ul qulub" (Ko'ngillarning sevgani) asarida "Uylanish va xotinlar to'g'risida" - deb nomlangan alohida mavzu bor.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham "Xotin olmoq zikrida" degan bobni uchratamiz.

Xo'sh, bu mavzuning bugun uchun ahamiyati qanday?!

"O'zbek xalq maqollari" yoki muqaddas "Hadisu sharif" larimizda ham xotin, ayol, zavja, ojiza, rafiqa so'zlari haqidagi fikrlar talaygina.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Xotun" (forcha qatun) so'ziga: "Xoqon xotini va hukmdor ayolga nisbatan qo'llangan turkiy unvon" – deb izoh berilgan.

Bu so'zning xotin shakli esa, biror erkak nikohidagi ayol ma'nosida keladi.

Abu Hurayra roziyollohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz Muhammad Sollollohu alayhi vasallam: " Ayollarning yaxshisi nazar solsang - xursand qiladigan, amr qilsang itoat etadigan va g'oyib bo'lsang seni o'z nafsida va molingda muhofaza qiladiganidir"- deganlar.

Demak, ayol faqat uy bekasi, ya'ni kundalik yumushlar, ovqat pishirish, uy tozaligi, bolalarga qarash ishlaridan tashqari, erkakka kayfiyat bera olishi, oiladagi ruhiyatni boshqara olishi lozim ekan. Ya'ni bugun uyda bayram bo'lishi yoki janjal bo'lishi bu oiladagi oqila yoki badf'el ayolga bog'liq ekan.

Xalqimizda bu borada "Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham – xotin", "Hayosiz ayol- tuzsiz ovqat", "Bo'ldiradigan ham xotin, O'ldiradigan ham xotin", "Xotinning yomoni- umrning egovi" kabi asrlar oshib yashab kelayotgan bir qator maqollar bor.

A.Navoiy "Mahbub ul qulub" asarida: " Yaxshi xotin - oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa- ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa- jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib intizom bo'ladi..." – deb oiladagi yaxshi xotinlar haqida yozadi.

Keyingi o'rinlarda esa, Hazrat Navoiy: " Ammo, Xudo ko'rsatmasin nomuvofiq xotin uchrasa, o'z uyingda halokatli illat paydo bo'ladi. U beandisha va shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor va yomonlik axtaruvchi bo'lsa, ruh undan azob chekadi. Tili achchiq bo'lsa, barchaning dilini yaralaydi, axloqsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi" – degan keskin fikrlarni bildiradi.

Navoiyning oshiqona g'azallari va unda kuylangan ma'shuqalar g'o'zalligi haqida o'qigan odam uchun yuqoridagi birmuncha aniq va keskin, konkret aytilgan fikrlar yangicha yondashuvni beradi.

Asar Alisher Navoiyning 59 yoshida yozilgan. Unda shoirning hayotiy xulosalari va falsafiy fikrlari to'la aks etganini ham eslatmoq joiz.

Adabiyotshunos olimasi Suyima G'aniyeva asarga yozgan so'zboshisida, yuqoridagi fikrlarga nisbatan " Bu bilan Navoiy xotin- qizlarni shunday nuqsonlardan forig' bo'lishga chorlaydi"- deb izoh beradi.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Bu borada yuqorida ta’kidlaganimizday, Kaykovusning XI asrning 82-83- yillarida fors tilida yozilgan “Qobusnoma” asarida ham “ Xotun olmoq zikrida” bobida qimmatli fikrlarni uchratamiz:

“Xotin pok nihod (toza tabiatli) va pokdil bo’lsun: Hayolig’, taqvodor, tili qisqa, molni yaxshi saqlag’uvchi bo’lsun. Debdularki, yaxshi xotun erning va umrning rohati bo’lur”.

Bunday sifatlarni o’zimizda mujassam etmog’imiz uchun, albatta, o’z ilmimizni ziyoda etmaklikka urinishimiz lozim bo’ladi, zero har narsaning ilmi bo’lganidek, yaxshi ayol bo’lmoqlikni o’rganish ham bir ilmdur.

Kaykovus ham keyingi o’rinlarda, badfe’l xotin haqida, alohida yozadi:

“ Ammo, do’st bo’lmag’on xotindan qochg’il... Buningdek, xotun sening molingni qo’lingdin olib, so’ngra seni unga molik bo’lurg’a qo’ymag’ay, undin so’ng, sen uning xotini bo’lursan, lekin ul senga xotin bo’lmas”.

Bu o’rinda ham muallif ayamay yozadi.

Yuqoridagi jumladan ko’rinadiki, xotin eriga do’st bo’lmog’i kerak ekan.

Jaloliddin Rumiyning XIII asrda yozilgan “Masnaviyi - ma’naviy” asarida:

“Bir yomon xotinning erini amrud og’ochi ustiga ya’ni daraxt shoxiga chiqarib, o’zi pastda begona erkak bilan turgani holda, eriga senga daraxt shoxidan shunday ko’rinyapti, aslida meni oldimda hech kim yo’q” - degani haqida hikoyat bor:

Eri aytadi daraxt shoxidan turib:

Tepadin qichqirdi er: ey, foxisha,  
O’ynagan yoningda, andoq kim o’sha?

Dedi xotin: bir hayoldir ko’rganing,  
Boshing aylanmish, ko’zing tinmish sening.

Keyingi o’rinlarda xotin:

“Ko’zlaringga ko’rsatur amrud uni” - deydi. Ya’ni amrud daraxti seni ko’zinga shunaqa ko’rsatyapti, aslida meni oldimda hech kim yo’q deb erini aldashga urinadi.

Bu o’rinda xulosa o’zingizdan. Xotinning yolg’oni va xiyonati haqida sakkiz asr oldin, ya’ni sakkizyuz yil ilgari ham yozilganligining o’zi fikrlarimizga izoh bo’la oladi

O’zbekiston Xalq Yozuvchisi Tog’ay Murodning 1979- yilda yozilgan “Ot kishnagan oqshom” qissasida bosh qahramon Ziyodulla Chavandoz tilidan aytilgan shunday fikrlar bor:

“ Ayol zoti boshdan oyoq zarga o’ralgan bilan, shoyi- shomilaga belangan bilan, o’zi yomon bo’lsa, unday ayolning kimga keragi bor? Unday ayolni shoyi- shomilasi bilan qo’shib, uch taloq qo’ymoq lozim!.. Erkakni el orasida sharmanda qiladi!

Ko’rinadiki, bu mavzu hamma zamonlarda ham dolzarb bo’lgan. Ziyodulla Chavandoz obrazini muallif cho’rtkesar, jaydari, borini aytib qo’ya qoladigan, chapani qahramon qilib yaratgan. Shu uchun ham u ayolning yomoni haqida gapirganida ham ayamay, ochiqchasiga gapiradi.

Abdulla Avloniy “ Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot...” – deganida chindan-da, haq edi.

Zero, yaxshi tarbiya ko’rgan qiz, bir odamni yuzaga chiqarsa, ozgina tarbiyada oqsagani bir mo’minning hayotini zimiston qilishi, ota- bobolarimiz fikrlari va tajribalaridan bizga ma’lum.

Yuqoridagi mulohazalardan bizning maqsadimiz ham, olimi Suyima G’aniyeva ta’kidlagani kabi, xotin- qizlar o’z- o’zimizni aytilgan nuqsonlardan forig’ bo’lishga chorlasak, ya’ni o’zimiz

haqimizda fikr yuritsak, hayotni murakkablashtirish o'rniga, farzandlarimizning rivojlanishi, oiladagi sog'lom muhit hamda oila boshimizning ko'ngli xotirjamligiga, ota- onalarimizning roziligiga erishishishga harakat qilgan bo'lar edik.

Bu fikrlar avvalo, o'zimiz uchun bir eslatma tariqasida yozildi!